



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



UDK: 334.012.63:332.1

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.11>

MINTAQA AHOLISINING DAROMADLARINI OSHIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI

*Fayzieva Shirin Shodmonovna
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi*

ВАЖНОСТЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ПОВЫШЕНИИ ДОХОДОВ РЕГИОНАЛЬНОГО НАСЕЛЕНИЯ

*Файзиева Ширин Шодмоновна
Кулдашева Мафтун*

THE IMPORTANCE OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN INCREASING THE INCOME OF THE REGIONAL POPULATION

*Fayzieva Shirin Shodmonovna
Kuldasheva Maftuna*

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlikning rivojlanish tarixi, uning zamonaviy shakllari, oilaviy tadbirkorlik, aholi bandligini ta'minlash masalalari va uning aholi daromadlari o'sishiga ta'siri haqida fikr-mulohazalar berilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Калит сўзлар. Tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi, xizmatlar ko'rsatish, savdo, turizm, logistika, qishloq xo'jaligi xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aholi daromadlari, investisiya loyihalari, konsalting, xorijiy tajriba, bandlik.

Аннотация. В статье рассматриваются история развития предпринимательства, его современные формы, семейное предпринимательство, вопросы обеспечения занятости населения и его влияние на рост доходов населения. Также освещаются основные направления развития семейного предпринимательства.

Ключевые слова. Предпринимательство, семейное предпринимательство, сектор услуг, предоставление услуг, торговля, туризм, логистика, сельскохозяйственные услуги, финансовые услуги, доходы населения, инвестиционные проекты, консалтинг, зарубежный опыт, занятость.

Abstract. This article examines the history of entrepreneurship, its modern forms, family entrepreneurship, employment issues, and its impact on income growth. It also highlights the key development trends in family entrepreneurship.

Key words. Entrepreneurship, family business, service sector, provision of services, trade, tourism, logistics, agricultural services, financial services, household income, investment projects, consulting, foreign experience, employment.

■ KIRISH

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish chuqur tarixiy ildizlarga ega va bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Shubhasiz, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Chunki bu yangi ish o'rinlari tashkil etilishi, iqtisodiy faolligi oshishi va aholining moliyaviy imkoniyatlari kengayishiga xizmat qilmoqda. Viloyatda aholi daromadlarini oshirish masalasi iqtisodiyotning

muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mehnat iqtisodiyoti, ijtimoiy siyosat, hududiy iqtisodiy rivojlanish, qashshoqlikni qisqartirish va davlat dasturlarining ta'siri kabi turli yo'nalishlarda o'rganilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqa iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki aholi daromadlarini oshirish, byudjet



daromadlarini ko'paytirish, hududiy infratuzilmani rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyatining holatini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biroq mavjud ijobiy natijalarga qaramay, viloyatda aholi daromadlari hududlar kesimida barqaror o'sish sur'atiga ega emas. Ayrim tumanlarda tadbirkorlik faolligi past, investitsiya muhitining etarli darajada shakllanmagani, moliyaviy infratuzilma va bozor mexanizmlarining zaifligi sababli daromadlar o'rtasida farqlar saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi – Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning amaliy omillarini o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. viloyatda tadbirkorlikning hozirgi holatini baholash;
2. tadbirkorlik subyektlari faoliyatining aholi daromadlariga ta'sirini tahlil qilish;
3. mintaqaviy tafovutlarning sabablari va ularni kamaytirish yo'llarini aniqlash;
4. tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining o'zni ilmiy jamoatchilik tomonidan keng o'rganilmoqda. Iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Tadqiqotchilar tadbirkorlikning hududiy farovonlikka ta'sirini turli yondashuvlarda tahlil etganlar. Sternberg, Rolf, Xitoyning yirik sanoat mintaqalarida o'tkazilgan empirik tahlil natijalariga ko'ra esa Guo Ying, Li Haibo va Zhang Wenjie, Lopez, Alejandrolar kichik biznes o'sishini tahlil qilib, raqamli infratuzilma, davlat qo'llovi va sanoat diversifikatsiyasining aholi daromadlariga ijobiy ta'sirini isbotlagan. Ular, shuningdek, mintaqaviy siyosatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish chorolari iqtisodiy tengsizlikni kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.[1]

Mavzu bo'yicha nazariy asoslar va umumiy yondashuvlarga murojaat qiladigan bo'lsak, A.Smit, D.Rikardo, J.B.Saylarning klassik iqtisodiy asarlarida mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish g'oyalari bayon etilgan. Shuningdek, boshqa olimlarning ishlarida aholi daromadlarining ish haqi, kapital va mehnat munosabatlari orqali shakllanishining nazariy asoslari tavsiflangan. J.M.Keynsning tadqiqotlari davlatning iqtisodiyotda faol ishtirok etishi va bandlikni ta'minlash orqali aholi daromadlarini oshirish yo'llarini asoslab berdi. M.Fridman va monetarizm maktabi vakillari iqtisodiy o'sish va pul-kredit siyosatining aholi daromadlariga ta'sirini o'rgandilar.

Xorijiy tadqiqotchilardan S.Kuznets daromad taqsimoti va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni belgilovchi Kuznets qonunini ishlab chiqdi. 2014 yilda Tomas Piketti notekis daromad va boylik taqsimotining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini asoslab berdi. Iqtisodchi

Jorj Stiglits ham iqtisodiy siyosat variantlari va tengsizlikni kamaytirish va daromadlarni oshirish choralari belgilab berdi. Bugungi kunda Jahon banki hisobotlarida bandlikni oshirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va qashshoqlikni qisqartirish orqali daromadlarni oshirish yo'llariga e'tibor qaratiladi.

Bu borada o'zbek olimlari o'rtasida ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Oltayev, Rashidov, Norboyevlar soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, "Har bir oila – tadbirkor" dasturining tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlariga ta'sirini baholadi. Mahmudov va Karimovanning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida, xususan, Qashqadaryoda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi sust rivojlangan, bu esa mintaqaviy daromadlar tengsizligini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois bu borada chuqur amaliy tahlillar olib borish mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. [3]

Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan, bunda aholi daromadlari o'sish dinamikasining davlat dasturlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlamoqda. O'zbek olimlaridan A.Abdullaev, M.Tojiboyev, Sh.Tursunov, B.Hamdammov va boshqalar mehnat bozori, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni taqsimlash va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aholi daromadlarini oshirish yo'llari mehnat bozorini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatni kuchaytirish, inflyatsiyani tartibga solish, innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish bilan chambarchas bog'liq. Xorijiy adabiyotlarda asosiy e'tibor daromadlar tengsizligi muammosiga va uning qisqarishiga qaratilgan bo'lsa, O'zbekistonni o'rganishda qashshoqlikni qisqartirish, davlat dasturlari va hududlarni rivojlantirish hisobiga aholi daromadlarini oshirishga e'tibor beriladi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa aholisi daromadlarini oshirishda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodiy tahlil, taqqoslash va guruhlash usullaridan foydalangan holda o'rganilib, respublikamizda aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda erishilgan natijalar xalqaro tajriba bilan qiyoslanadi, shuningdek, kelgusida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari belgilab olindi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki aholi bandligi darajasini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati hududlarda aholi farovonligini yuksaltirishning asosiy omillaridan biridir. Tadbirkorlik rivojlanishining



uy xo'jaliklari daromadlariga ta'siri, birinchi navbatda, aholi bandligini oshirish va daromadlar o'sishi orqali namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik yangi ish o'rinlarining asosiy manbai bo'lib, har bir yangi kichik biznes loyihasida o'rtacha 3-10 ta doimiy ish o'ri yaratiladi. Xotin-qizlar va yoshlar bandligining ortishi xonadonlar daromadini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu mehnat daromadlarining oshishiga, iste'molchilar imkoniyatlarining kengayishiga va qashshoqlikning qisqarishiga olib keladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik mahalliy resurslar: qishloq xo'jaligi xomashyosi, mineral resurslar, turizm salohiyati va hunarmandchilik an'analari iqtisodiy aylanmaga jalb etish orqali samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu yangi mahsulotlar, yangi bozorlar yaratish, qiymat zanjirlarini shakllantirish va daromadlarni oshirishga yordam beradi. [1]

Bozor infratuzilmasining rivojlanishi bank, logistika, marketing xizmatlari tizimlari, zamonaviy savdo majmualari, biznes markazlari, transport tarmoqlari va boshqalarning shakllanishiga olib keladi. Bu hududda xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, aholi bandligini diversifikatsiya qilish, aholi daromadlarini barqarorlashtirish imkonini bermiqda.

Ushbu sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:

soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiyalar berish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, tadbirkorlarga moliyaviy-huquqiy maslahatlar berish.

2. Biznes infratuzilmasini rivojlantirish: innovatsion markazlar, biznes-inkubatorlar, texnoparklar yaratish, logistika va transport infratuzilmasini takomillashtirish, chakana savdo tarmoqlarini kengaytirish, elektron tijoratni rivojlantirish uchun raqamli platformalarni shakllantirish.

3. Bandlikni ta'minlash va ish o'rinlari yaratish: yoshlar, xotin-qizlar va kam ta'minlangan oilalarni tadbirkorlikka jalb etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar tashkil etish, kasb-hunarga o'qitish orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyotdan foydalanish: onlayn xizmatlar va startaplar uchun sharoit yaratish, raqamli platformalar orqali mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirish.

5. Xalqaro tajribadan foydalanish: xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish, ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan klaster tizimini moslashtirish, davlat-xususiy sheriklik amaliyotini kengaytirish.

6. Ijtimoiy samara: aholining real daromadlarining oshishi, turmush darajasining yaxshilanishi, qashshoqlikning qisqarishi, mahalliy byudjetga tushumlarning ko'payishi va ularni infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilishi. [3]

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlikni rag'batlantirish aholi bandligini oshirish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikka

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

erishishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Hozirgi global iqtisodiy sharoitda tadbirkorlikning an'anaviy shakllari (savdo, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish) bilan bir qatorda texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan biznesning yangi, zamonaviy shakllari ham faol rivojlanmoqda.

Tadbirkorlik iqtisodiy tizimning harakatlantiruvchi kuchi sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bevosita ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotining ko'plab rivojlangan davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki aholi daromadlarini barqaror oshirishning asosiy omillaridan biridir. Aholi daromadlari tushunchasi iqtisodiy nazariyada insonlarning mehnat faoliyati, mulkdan foydalanish yoki tadbirkorlik orqali oladigan pul va natura shaklidagi tushumlarini ifodalaydi. Iqtisodchi olim A. Smit ta'kidlaganidek, "daromad – inson mehnatining natijasi bo'lib, jamiyatning umumiy boyligiga ulushi bilan belgilanadi". Demak, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi aholi mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Tadbirkorlik rivoji va daromad o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda ko'p o'rganilgan. Masalan, J. Shumpeter "iqtisodiy rivojlanishning drayveri innovatsion tadbirkorlikdir" deb ta'kidlab, tadbirkorlikning iqtisodiy tizimni yangilash va o'sishga olib keluvchi asosiy kuch ekanligini isbotlagan. Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlarda esa tadbirkorlikning ijtimoiy samarasi, ya'ni aholi bandligi, ijtimoiy himoya va hududiy tengsizlikni kamaytirishdagi roli alohida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar – kelajagimiz" dasturlari doirasida oilaviy va yoshlar biznesiga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar tadbirkorlikni boshlash uchun muhim moliyaviy manbaga aylangan. Bu chora-tadbirlar natijasida mintaqalarda, xususan Qashqadaryo viloyatida ham, mikrobiznes va xususiy tashabbuslarning faolligi ortmoqda. Hududiy iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqaning iqtisodiy resurslarini harakatga keltirish, ichki bozor sig'imini kengaytirish, soliq bazasini mustahkamlash hamda aholi daromadlarini ko'paytirish uchun strategik omil hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy va mehnat resurslariga boy, ammo ishlab chiqarish infratuzilmasi etarli rivojlanmagan hududlarda (masalan, Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida) tadbirkorlikning kengayishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'lidir. Aholi daromadlarini shakllantirishda tadbirkorlikning o'zni uchta yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir — tadbirkorlik subyektlari orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi va mehnat daromadlari ortadi.




2. Bilvosita ta'sir — kichik biznes faoliyati hududda xizmatlar va tovarlar bozorini kengaytiradi, bu esa aholi iste'mol darajasini oshiradi.

3. Ko'paytma (multiplikativ) ta'sir — tadbirkorlikdan olingan foyda qayta investitsiya qilinib,

yangi ishlab chiqarish va xizmat tarmoqlarini yaratadi, natijada umumiy daromadlar bazasi kengayadi.

Quyidagi 1-rasm orqali O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.




1-rasm. Respublikada faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar

Demak, oilaviy korxonalar soni bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2025 yil 1-dekabr holatiga ko'ra eng ko'p korxonalar soni Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri kelib, 8138 tani tashkil qilgan. Eng kam esa Sirdaryo viloyatida 282 tani tashkil qilgan. Shuningdek,

Qashqadaryo viloyatida 3888 ta tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-rasmida esa Qashqadaryo viloyatida oilaviy korxonalarning faoliyat sohalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.




2-rasm Qashqadaryo viloyatida oilaviy korxonalarning faoliyat sohalari bo'yicha ma'lumot



Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2025-yilning 1-avgust holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatidagi oilaviy korxonalarning faoliyati eng ko'p savdo sohasiga to'g'ri keladi va 1185

tani tashkil qiladi. Keyingi o'rinlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqsilik, ovqatlanish xizmatlari kabi sohalarni ko'rish mumkin.



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida oilaviy korxonalarning faoliyat sohalari bo'yicha ulushi

Yuqoridagi 3-rasmda Qashqadaryo viloyatida oilaviy korxonalarning faoliyat sohalari bo'yicha ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra 39 foiz savdo sohasida, 19 foiz esa sanoat sohasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, bugungi kunda boshqa sohalarda ham o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda.

Kichik biznes nafaqat savdo va xizmatlar sektorlarida, balki qurilish, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida ham faol rivojlanmoqda. Bu, ayniqsa, kichik tadbirkorlikning umumiy o'sishi va aholi daromadlarini oshirishga hissa qo'shadi. Respublika bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy soni yillar davomida oshib borayotgani, bu sohaga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani va ixtisoslashgan bizneslar paydo bo'layotganiga dalolat beradi.

Hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, hududlar va tumanlar kesimida

kichik biznes faoliyatini tahlil qilish mahalliy iqtisodiy salohiyatni baholash va maqsadli davlat siyosatini ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, respublika iqtisodiyotida yoqilg'i-energetika majmuasi, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy faolligining oshishiga va aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik ulushining kengayishiga xizmat qilmoqda. Davlat statistika organlari ma'lumotlari va hududiy iqtisodiy tendensiyalar tahliliga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi hududiy mahsulot (YHM) ulushi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu holat tadbirkorlikning mintaqaviy iqtisodiyotidagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. [5]

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati aholisining daromadlari tarkibida tadbirkorlik ulushi dinamikasi

Yil	Aholi umumiy daromadlari (mlrd so'm)	Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (%)	Tadbirkorlikdan olingan daromadlar (%)	Transfer daromadlari (%)
2021	25 870	61,0	26,2	12,8
2022	28 940	62,3	28,0	9,7
2023	32 510	63,6	29,1	7,3
2024	36 980	64,4	30,5	5,1
2025 (baholash)	41 200	65,2	32,0	2,8



Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-2025-yillar oralig'ida aholi umumiy daromadlari hajmi barqaror oshib borgan. Ayniqsa, tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushi 26,2 foizdan 32,0 foizgacha, ya'ni 5,8 foiz punktga oshgan. Bu jarayon aholi bandligining oshishi, oilaviy va kichik biznes subyektlarining kengayishi hamda davlat transferlariga bo'lgan qaramlikning qisqarishi bilan izohlanadi. Mazkur holat mintaqada iqtisodiy mustaqillik va aholi farovonligining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy va kichik tadbirkorlikning rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarini oshirish o'rtasida bevosita va mustahkam bog'liqlik mavjud. Tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi, YHMdagi ulushining ortishi hamda aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik ulushining oshib borishi mintaqada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratmoqda [6]

Tadbirkorlikning zamonaviy shakllariga quyidagilar kiradi:

1. IT startaplari va raqamli tadbirkorlik
2. Raqamli tadbirkorlik
3. Freelancing va gig iqtisodiyoti
4. Crowdfunding va kraudsorsing
5. Fintech tadbirkorligi
6. Yashil tadbirkorlik
7. Innovatsion xizmatlar va startap-inkubatorlar
8. Ijtimoiy tadbirkorlik
9. Agrobiznes va agrobiznes startaplari
10. Freelancing va masofaviy xizmatlar.

Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish hisobidan ham iqtisodiy samaradorlik va aholi daromadlari ortib bormoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyatida barpo etilgan zamonaviy issiqxonalar yangi ish o'rinlari yaratib, qishloq aholisi daromadini sezilarli darajada oshirdi. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini imtiyozli kreditlash tadbirkorlik faolligini rag'batlantirmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining o'sishi ham aholi bandligi va daromadlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. [3]

Biz quyidagi tavsiyalarni taklif qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- mintaqaviy hukumatlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslar hajmini oshirish;
- tadbirkorlik faoliyatida malaka oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish dasturlarini kengaytirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish hududlarda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka erishishning asosiy omillaridan biridir. Bu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini Qashqadaryo viloyati misolida o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlari o'sishi dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2020-2024-yillarda tadbirkorlik subyektlari soni 32,5 mingtadan 46,5 mingtaga ko'payganini ko'ramiz. Shu davrda yaratilgan

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

ish o'rinlari soni 18,2 mingtadan 29 mingtaga ko'paydi. Bu ko'rsatkichlar tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini pasaytirishdagi muhim ijtimoiy rolini ko'rsatadi. Uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadlari ham sezilarli darajada oshdi: 2020-yildagi 2,3 million so'mdan 2024-yilda 4,2 million so'mgacha. Ishsizlik darajasi 9,8 foizdan 7,0 foizga tushdi. Ma'lumotlar tahlili tadbirkorlik sub'ektlari sonining o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va uy xo'jaliklari daromadlarining oshishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. [4]

O'zbekistondagi statistik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yilda qariyb 55 foizni tashkil etdi. Ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohaslarida mehnat qiladi. Birgina 2023-yilda 500 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi, ularning salmoqli qismi kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keldi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi oilalarning daromadlari aholining boshqa toifalariga nisbatan 1,5-2 baravar yuqori. [5]

Qishloqlarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha imtiyozli kreditlar chorvachilik, parrandachilik, bog'dorchilik va xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar yuz minglab yoshlarga o'z biznesini yo'lga qo'yish imkonini berdi. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi, ayniqsa, samarali bo'ldi.

Shunday qilib, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini rivojlantirish hududlar daromadlarini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Asosiy ko'rsatkichlar: kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55 foiz, kichik biznesning bandligi 74 foiz, yangi ish o'rinlari soni 2023-yilda 500 mingtani tashkil etishi kutilmoqda. [6]

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlaydigan bo'lsak, Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

1. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.
2. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan grant dasturlarini kengaytirish.
3. Innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.
4. Hududiy infratuzilmani (energetika, transport, logistika) modernizatsiya qilish.
5. Raqamli iqtisodiyotni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli, innovatsion va ijtimoiy tadbirkorlik ushbu sohadagi eng zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari hisoblanadi. Ular nafaqat moliyaviy foyda keltiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ham rag'batlantiradi. Tadbirkorlik yangi ish o'rinlari yaratib, yuqori daromad manbalarini yaratmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida quyidagilar kutilmoqda:



- Bandlikning o'sishi 20-30%;
- oilaviy tadbirkorlik daromadlarini 1,5–2 barobarga oshirish;
- qashshoqlikning sezilarli darajada qisqarishi;
- Yalpi hududiy mahsulotda xizmatlar ulushining keskin oshishi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Fayzieva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor Qarshi davlat texnika universiteti / Файзиева Ширин Шодмоновна, кандидат экономических наук, профессора Каршинский государственный технический университет / Fayzieva Shirin Shodmonovna, candidate in Economics, Acting Professor Karshi State Technical University

e-mail: fayziyevashirin66@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5643-9934>

2. Quldasheva Maftuna Musurmon qizi - Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Кулдашева Мафтун Самостоятельный соискатель Каршинского государственного технического университета / Kuldashева Maftuna Independent candidate at Karshi State Technical University

e-mail: quldasheva.maftuna@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-5079-8640>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz". 2025 yil 19 mart. <https://president.uz/oz/lists/view/7955>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi to'g'risida Qaror. – 7-iyun 2018-yil, №454. 2018.

3. Narqo'ziev A. R. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmaning o'rni // SJIRD. - 2022 yil 28 noyabr.

4. Abdullajonov D. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari va uning samaradorligini oshirish yo'llari // Qo'qon universiteti axborotnomasi. - 2025. - № 15. - C. 13–15.

5. Sternberg R. Entrepreneurial ecosystems and regional development: New perspectives on innovation and growth. Regional Studies, 56(4), 512–528. 2022 <https://doi.org/10.1080/00343404.2022.2034527>

6. Mahmudov Sh.M., Karimova N.I. Mintaqaviy tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanish omillari (Qashqadaryo viloyati misolida). — "TDIU Ilmiy axborotlari", №2, 78–88-betlar. 2023.

7. Jo'rayev S. Sh. Tadbirkorlikni rivojlantirish – mintaqaviy iqtisodiy o'sish omili sifatida. // "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", №3, 55–63-betlar. 2023.

8. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyati Raqamlarda / Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. - Onlayn manba. — 2025. — Internet: <https://qashstat.uz>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz